



## **GEODEZIYADA EHTIMOLLAR NAZARIYASI, HODISANING EHTIMOLI VA TASODIFIY HODISA**

Jo‘rayeva Husnora Davrononvna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, v.v.b.dotsenti  
xusnoragk@gmail.com

### **Annotatsiya**

Geodezik ishlarning asosiy qismini geodezik asboblar orqali o‘lchashlar tashkil qilishi barchamizga ma’lum. O‘lchashlar natijasida sonli miqdor olinib, geodeziyada sonli miqdorlar ko‘p marta o‘lchanadi. O‘lchash sifatini oshirish maqsadida yana kerakli miqdorlardan tashqari ortiqcha miqdorlar ham o‘lchanadi. Aynan ortiqcha o‘lchashlar mavjudligi, o‘lchashlarda kelib chiqadigan xatoliklar sababli amalga oshiriladi. O‘lchashlarda xatoliklar mavjud bo‘lganligi sababli, qo‘srimcha o‘lchashlar amalga oshirilishiga sabab bo‘ladi va ehtimollar nazariyasiga murojaat qilinadi.

### **Аннотация**

Все мы знаем, что основную часть геодезических работ составляют измерения с помощью геодезических инструментов. В результате измерений получается числовая величина, а в геодезии числовые величины измеряются многократно. Для повышения качества измерения помимо требуемых количеств также измеряются избыточные количества. Проводится из-за наличия превышения замеров, из-за погрешностей в измерениях. Поскольку в измерениях есть погрешности, проводятся дополнительные измерения и применяется теория вероятностей.

### **Abstract**

We all know that the main part of geodetic works is measurements by geodetic instruments. As a result of measurements, numerical quantities are obtained, and numerical quantities are measured many times in geodesy. In order to improve the quality of measurement, in addition to the necessary amounts, excess amounts are also measured. It is carried out due to the presence of excess measurements, due to

errors in measurements. Since there are errors in measurements, additional measurements are made and probability theory is applied.

**Kalit so‘zlar:** Ehtimollar nazariyasi, tasodifiy hodisa, hodisaning ehtimoli, hodisaning umumiy soni, voqealar soni, geodezik asboblar, geodezik o‘lchashlar, zaruriy va qo‘shimcha o‘lchashlar.

**Ключевые слова:** Теория вероятностей, случайное событие, вероятность события, число общее событий, число случаев, геодезические приборы, геодезические измерения, необходимые и дополнительные измерения.

**Keywords:** Probability theory, random event, probability of an event, number of total events, number of cases, geodetic instruments, geodetic measurements, necessary and additional measurements.

**Ehtimollar nazariyasi** – biron bir tasodifiy hodisalarning ro‘y berish ehtimoliga ko‘ra ular bilan qandaydir bog‘langan boshqa tasodifiy hodisalarning ro‘y berishi ehtimollarini topish bilan shug‘ullanadigan matematika sohasi hisoblanadi. Biror hodisaning ro‘y berish ehtimoli, uncha ahamiyatli emas, chunki insonlar ishonchli natijaga erishishni xohlaydi. Shu nuqtai nazardan biron bir A hodisa ro‘y berish ehtimoli 1 ga ancha yaqinligi (yoki ro‘y bermaslik ehtimoli 0 ga yaqinligi) haqidagi xulosalar katta ahamiyatga ega. Bunday hodisa amalda muqarrar ro‘y berishi ishonchli bo‘lgan hodisa deb hisoblanadi. Ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bunday hodisalar, odatda A hodisa ko‘p sonli tasodifiy, bir-biri bilan sust bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirida ro‘y beradi yoki ro‘y bermaydi, degan farazga asoslanadi. Shuning uchun ehtimollar nazariyasini ko‘p sonli tasodifiy omillarning o‘zaro ta’siridan paydo bo‘ladigan qonuniyatlarni aniqlaydigan va o‘rganadigan bo‘lim deyish mumkin.

XIX-asr oxiridan boshlab fizika, kimyo, biologiya va boshqalar fanlarda ko‘plab statistik qonuniyatlar kashf etiladi. Turli sohalardagi statistik qonuniyatlarini ehtimollar nazariyasi usullari bilan o‘rganish hodisalarning ehtimollari hamma vaqt ba’zi oddiy munosabatlarni qanoatlantirishga asoslangan. Shu oddiy munosabatlar



## Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: econferenceseries.com

asosida hodisalarning ro'y berish ehtimollari xossalari o'rganish Ehtimollar nazariyasi predmetini tashkil qiladi.

**Ehtimollar nazariyasi** – ko'plab tasodi-fiy hodisalarning sonli qonuniyatini o'rganadigan matematik fan hisoblanadi.

**Tasodify hodisa** deb shartlar to'plami S bajarilganda ro'y berishi yoki ro'y bermasligi mumkin bo'lgan hodisaga aytildi. Lekin, tasodify hodisa ro'y berganda qandaydir aniq qonuniyat amal qiladi: tangani tashlaganda taxminan gerb va raqam tomonining teng tushishi, o'q otilganda nishonning chekkasidan ko'ra uning markaziga ko'proq tegishi va hokazolar.

Sinash natijalarini sonli va sifat jihatidan ifodalash mumkin. Har qanday sinashning **sifatli** xarakteristikasi **hodisa** deyiladi.

Tajribaning har qanday sonli xarakteristikasi **tasodify miqdor** deyiladi. Qandaydir miqdorning o'lhash natijasi, otishmada koordinataga tushishi va boshqalar tasodify miqdorlarga misol bo'la oladi.

Hodisalar shartli ravishda **oddiy va murakkab hodisalarga** bo'linadi. Bir o'lhashda bitta xatolikning paydo bo'lishi oddiy hodisa, 10 marta o'lhashda 5 ta xatolikning paydo bo'lishi murakkab hodisadir. Hodisalar lotin alifbosining bosh harflari A, B, C yoki A<sub>1</sub>, A<sub>2</sub>,...,A<sub>n</sub> deb belgilanadi.

Yer quyosh atrorofida 1yil-u 6 soatda 1 marta aylanib chiqishi oddiy hodisa, 4 yilda yig'ilgan 4×6 soat, jami 24 soat. 1 sutka, ya'ni kabisa yilini tashkil etishi murakkab hodisaga misol bo'ladi.

Hodisalar bo'ladiki, ehtimolini tajribaning shartidan aniqlash mumkin. Buning uchun hodisalar to'liq guruhini o'z ichiga olgan oddiy (elementar) hodisalar kerak. Bunda tajriba o'z maromiga yetdi deyish mumkin. Bunday tajriba uchun imkoniyat yaratuvchi bahoga asoslangan ehtimollikni bevosita hisoblash mumkin. Agar tasodifning paydo bo'lishi hodisaning paydo bo'lishiga olib kelsa, hodisaga qulaylik tug'diradigan tasodif deb aytildi.

**A hodisaning ehtimoli** deb, tajribaning bu hodisa ro'y berishiga qulaylik tug'diruvchi natijalar sonining tajriba yagona mumkin bo'lgan va teng imkoniyatlari elementar natijalari umumiy sonining nisbatiga aytildi. Hodisaning ehtimolligi A quyidagi formula bilan hisoblanadi:



$$P(A) = \frac{M}{N}, \quad (1)$$

bu yerda: N – hodisaning umumiy soni,

M – A hodisaga qulaylik tug‘diruvchi voqealar soni.

(1) formula **ehtimollikning bevosita hisoblash formulasi** deyiladi.

Bu formulani qo‘llagan holda, teodolitni bir marta reykaga qaratganda, teodolitning ipli dal’nomeri reykaga mos tushishi, A hodisaning ehtimolligi deyiladi.

$$P(A) = \frac{1}{2},$$

**MASALA:** Geodezik asboblar saqlaydigan xonada 10 ta yaroqsiz, 15 ta talabga javob beradigan shtativ mavjud. Xonadan bitta shtativni olganda talabga javob beradigan shtativ chiqish ehtimolini toping.



**1– chizma. Geodezik ishlarda foydalaniladigan shtativlar**

**YECHISH:** Hodisaning ehtimolligi (1) formula bo‘yicha quyidagicha hisoblanadi:

$$P(A) = \frac{M}{N} = \frac{15}{25} = \frac{3}{5}.$$

**MASALA:** Shart xuddi shunday, lekin xonadan 3 ta shtativ olinadi. 3 ta shtativning talabga javob berish ehtimolini toping.

**YECHISH:** Hodisalarning umumiy soni xonadan 3 marta 3 tadan detal olgandagi N songa teng. N sonini hisoblash uchun K elementdan iborat bo‘lgan 1 birikmalar bo‘yicha hisoblaymiz:

$$C_l^k = \frac{l!}{k!(l-k)!} \quad (2)$$

**Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**  
Hosted online from Toronto, Canada.

**Date:** 5<sup>th</sup> December, 2022

**ISSN:** XXXX-XXXX

**Website:** econferenceseries.com

Faktorialning asosiy xossalardan foydalanib  $n! = n(n-1)!$  va qisqartirishlarni amalga oshirib, topamiz:

$$N = C_{25}^3 = \frac{25!}{3!(25-3)!} = \frac{25 \cdot 24 \cdot 23 \cdot 22!}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 22!} = 25 \cdot 4 \cdot 23 = 2300.$$

Uchta talabga javob beradigan paydo bo‘lishiga qulaylik tug‘diradigan hodisalar soni standart shtativni olish usullari soniga teng:

$$M = C_{15}^3 = \frac{15!}{3!(15-3)!} = \frac{15 \cdot 14 \cdot 13 \cdot 12!}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 12!} = 5 \cdot 7 \cdot 13 = 455.$$

Topilishi kerak bo‘lgan ehtimollik:

$$P(B) = \frac{C_{15}^3}{C_{25}^3} = \frac{455}{2300} = 0,198.$$

## REFERENCES:

1. Jurayeva H.D. Mathematical processing of geodetic measurements // Tashkent, 2022. pp. 4–18.
2. [www.geodesy.com](http://www.geodesy.com).